Xalqimiz badiiy tafakkurini o‘zida aks ettiruvchi asar

O‘zining qadimiy va boy milliy madaniyati bilan jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan o‘zbek xalqi g‘oyat ajoyib folklor an’analarini yaratgan. Uning asosiy qismi og‘zaki ijro sharoitlarida xalq ijodkorlarining aytib va kuylab berishi asosida o‘zbek folklorshunoslari tomonidan yozib olingan.

Joriy yil 24-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida “Nomoddiy madaniy meros obyektlarini himoya qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish borasida belgilangan chora-tadbirlar” mavzusida matbuot anjumani o‘tkazildi. Unda Institut xodimlari tomonidan nashrga tayyorlanayotgan 100 jildlik “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari” kitobining 2018 yil davomida nashr etilgan 12 jildi haqida so‘z yuritildi.

Ushbu 100 jildlik kitob Institutning noyob ilmiy obyekti – Folklor arxivi materiallari asosida tayyorlanmoqda. Bu muhtasham nashrning 59 jildi dostonlar, 10 jildi xalq qo‘shiqlari, 12 jildi ertaklar, qolgan jildlari esa terma, afsona, rivoyat, naql, maqol, topishmoq, askiya, lof, latifa, og‘zaki drama, bolalar folklori va boshqa janrlardan tashkil topadi.

ЎЗБЕК ХАЛҚ
ИЖОДИ
ЁДГОРЛИКЛАРИ
11

ЎЗБЕК ХАЛҚ
ИЖОДИ
ЁДГОРЛИКЛАРИ
12

Anjumanda so‘zga chiqqanlar bu kitobdagi dostonlar, ertaklar, qo‘shiqlar, latifalar – butun xalq og‘zaki ijodi namunalari xalqimizning butun orzu-istaklarini, o‘y-kechinmalarini, qolaversa, boy madaniy merosimizni o‘zida aks ettirishi jihatidan ham kelajak avlod uchun juda qimmatli ekanligini ta’kidlashdi.

“Номоддий маданий мерос
объектларини ҳимоя қилиш,
асраш, тарғиб қилиш ва улардан
фойдаланиш борасида
белгиланган чора-тадбир”